O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:
№ BD602 30100-1.24
2021 y. «___» _____

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori :
_____ prof.R.I.Xalmuradov
"___" _____ 2021 yil

UMUMIY PEDAGOGIKA

FANNING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:
100000 -Gumanitar
200000-Ijtimoiy soha
Ta'lim sohasi:
110000-Pedagogika
120000-Gumanitar fanlar
130000-Matematika
140000-Tabiiy fanlar
210000-Sotsiologiya va psixologiya
330000-Kompyuter texnologiyalari va informatika
630000-Atrof-muhit muhofazasi

Ta'lim yo'nalishlari:

5610520 – Sport faoliyati
5610500- Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)
60540200-Amaliy matematika va informatika
60530900-Fizika
60530100-Kimyo
60610100-Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
60420100- Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)
60510100- Bilogiya (faoliyat turlari bo'yicha)
60540100- Matematika
60230100-Filologiya va tillarni o'qitish:o'zbek tili
60230600-Noshirlik ishi

Samarqand 2021

Fanning o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti Pedagogika fakultetti kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2021 yil 29-maydagi 14-sonli majlis bayonnoma).

Fakultet dekani: **dots. S.O'roqov**

Tuzuvchilar:

Murodova N.B. – SamDU "Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi
Qurbonova D.T. – SamDU "Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi
Po'latova M.E. – SamDU "Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi
F.Nuradinov. - SamDU "Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

Taqrizchilar:

M.M.Maxmudova – SamDCHTI "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi professori, p.f.d.

N.Shodiyev - SamDU "Pedagogika" kafedrasi professori, p.f.d.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Pedagogika" kafedrasining 2021 yil 21 maydagi 10-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **prof.K.Hasanova**

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2020 yil 3-iyuldagi 10-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv -uslubiy kengash raisi: **prof.A.Soleev**

KIRISH

I.O’quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o’rni

Umumiy pedagogika fani bo‘yicha o‘quv dastur Samarqand davlat universiteti barcha bakalavriat bosqichining umumkasbiy fanlar bloki bo‘yicha ishlangan bo‘lib, Davlat ta’lim standartiga muvofiq tuzilgan. Dastur oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy pedagogik sifatlarni shakllantirishga qaratilgan.

“Umumiy pedagogika” o‘quv dasturi uchta asosiy bo‘lim, “Pedagogika nazariyasi”, “Pedagogika tarixi”, “ Pedagogik mahorat”, “Maxsus pedagogika” va “Ta’lim muassasasi menejmenti”dan iborat bo‘lib, ushbu bo‘limlardagi mazmun orqali bo‘lajak o‘qituvchi kadrlarni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida erishilayotgan yutuqlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda tayyorlashni, o‘qituvchi sifatida pedagogik madaniyatni rivojlantirish, pedagogik jarayonni to‘g‘ri tashkiSl etish, boshqarish va nazorat qilish ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratilgan.

“Pedagogika nazariyasi”dan talabalar O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati, pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsadi va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta’sir etuvchi omillar, didaktika (ta’lim nazariyasi), ta’lim mazmuni, ta’lim qonuniyatlari va tamoillari, o‘qitish metodlari, ta’limni tashkil etish shakllari, o’quvchilarni bilim, ko’nikma va malakalarini tashhis etish, tarbiya jarayonining mazmuni, moiyati, qonuniyatlari, tamoillari, tarbiyaning metodlari va vositalari, tarbiya turlari mazmuni, ta’lim muasssasini boshqarish va rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar (korreksion pedagogika) ta’lim-tarbiyasi yuzasidan bilim, ko’nikma va malakalarini egallashlari lozim.

“Pedagogika tarixi” kursi pedagogika fanining alohida sohasi sifatida pedagogik fikrlarning paydo bo’lishi va rivojlanishi orqali yangi, istiqbolda hal ertilishi lozim bo’lgan vazifalarni belgilaydi hamda uni hal etish strategiyalarini ko’rsatib beradi. U eng qadimgi davrlardan O’zbekiston Respublikasi mustaqilligi e’lon qilingsndan keyingi davrda pedagogi fikrlar va ta’lim tizimining rivojlanishi hamda emng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha jahon mamlakatlarida tarbiya, ta’lim va p[edagogik fikrlar rivojiga doir masalalarni o’zida aks ettiradi.

“Pedagogik mahorat” kursida pedagogik mahorat va madaniyat, ta’lim amaliyoti va pedagogik fikrlar tarixida o’qituvchi mahorati masalasining aks etishi, pedagogik qobiliyat, o’qituvchining qobiliyati, muloqot psixologiyasi va muloqot madaniyati, pedagogik muloqot, pedagogik takt va pedagogik etika, pedagogik texnika va uni egallash yo’llari, nutq madaniyati, o’qituvchining o’quv jarayonidagi mahorati, o’qituvchining tarbiyachilik mahorati, o’qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, o’z-o’zini tarbiyalash va o’z ustida ishlash, ilg’or pedagogik tajribani ommmalshtirish kabi masalalar o’rganiladi.

II. O‘quv faninining maqsadi va vazifasi

Fanni o‘qitishdan maqsad – bo’lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogika fanining nazariy-tarixiy asoslari va o’qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni talablari asosida ta’lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik merosdan samarali foydalanish, real ta’lim amaliyotida, yuksak pedagogik madaniyat va texnikani namoyon eta olishga o’rgatish.

Fanning vazifalari:

- O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va davlat ta’lim standartlari asosida talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash va ta’limni samarali tashkil etishga o’rgatish;
- Talabalarni didaktika, tarbiya nazariyasi, ta’lim tizimini boshqarish, pedagogik firklarning tarixiyligi va pedagogik mahoratning mohiyati yuzasidan nazariy bilimlarni hosil qilish;
- Umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e’tiborga olib, ta’lim-tarbiya mazmuni, milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatini yaratish;
- Talabalarga ijtimoiy yordamga muxtoj shaxslarga ta’lim berish, ularni shaxs sifatida rivojlantirish borasidagi xalqaro tajribalarni o‘rganish;

- Milliy va Jahon pedagogik fikrlari taraqqiyoti bilan tanishjtirish hamda pedagogik merosdan samarali foydalanish, bo‘lajak mutaxassislarda shaxs tarbiyasi masalalarini hal etishda Sharq mutafakkirlari (Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy) va G‘arb mutafakkirlarining (Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy) pedagogik qarashlarini ta’lim muassasasi amaliyotiga samarali tadbiq etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- Global doirada ta’lim tizimi rivojlanishining holati asosiy yo’nalishlari va qonuniyatlarini tahlil etish, milliy va hududiy o’ziga xosliklardagi umumiy ko’rinishlarni ochib berish, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy pedagogik, madaniyatni boyitish shakl va metodlarini aniqlashtirish.
- Talabalarni o’qituvchi faoliyati kasbiy mahoratning tutgan o’rni, mazmun- mohiyatiga doir nazariy bilimlar hamda pedagogik faoliyatning turli ko’rinishlarida o’qituvchining muomala madaniyati, o’quvchilar bilan aloqa o’rnatish va muloqotga kirisha olish metodikasini to’liq o’zlashtirishlariga erishish.

“Umumiy pedagogika” faninini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamiyillari; pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik fikrlarning rivojlanish taraqqiyoti, o’quv jarayonini tashkil etishning metod va shakllariga qo’yilgan zamonaviy talablar; ta’lim oluvchilar shaxsini rivojlantirish omillari, yosh davrlarning o’ziga xosliklari, tarbiya jarayonining mazmuni, qonuniyatlari va tamoyillari; pedagogikmenejmentning mohiyati va o’ziga xosliklari; korreksion pedagogikaning asosiy yo’nalishlari; pedagogikmahorat asoslari; pedagogik terminologiya haqida to’liq ***bilimga;***
- milliy g’oya va asosiy pedagogikqonuniyatlar hamda tamoyillarga asoslangan holda o’quv-tarbiya ishlarini o’tkazish, ta’limni tashkil etishning asosiy shakllarini amaliyotda qo’llash; ta’lim va tarbiya metodlari, vositalarini amaliyotda qo’llash, aniq vaziyatlar uchun ularning qulay variantlarini tanlash; o’quv va tarbiya jarayonida o’quvchilar jamoasini samarali boshqarish; o’quvchilar xulqi va faoliyatini rag’batlantirish; pedagogik maqsadlarga erishishda egallanadigan bilimlarni tanlash, tahlil etish, umumlashtirish va ularni texnologik shaklda taqdim etish, aniq sharoitlarda ta’lim- tarbiyaga doir amaliy vazifalari hal etish va tizimlashtirish, o’quvchi shaxsi va o’quvchilar jamoalarini o’rganish, ta’limda orqada qolish sabablarini aniqlash, muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash, o’z-o’zini boshqara olish, o’zaro ta’sir etish va hamkorlikda ishlash, ijodiy, maorif va pedagogika tarixi kishilik jamiyatining taraqqiyoti tarixi bilan mushtarak o’rganish, o’z xalqi, ona yurti, vatani, millati, dini va madaniyati tarixi ***haqidagi ko’nikma;***
- psixologik-pedagogik adabiyotlar bilan ishlash; zarur metodik yo’riqnomalar tuzish; samarali pedagogik tadqiqotlar o’tkazish; pedagogic texnologiya va axborot texnologiyalaridan foydalana olish; tarbiyaviy ishni rejalashtirish va amalga oshirish; guruh jamoasining psixologik muhitini va auditoriya (sinf) bilan munosabatda individual, shaxsiy va yosh imkoniyatlarini hisobga olish, istiqboldagi rivojlanish va talab etiladigan natijaga erishishni strategik rejalashtirish, pedagogik vazifalarni hal etishga doir standart bo’lmagan yondashuvlarni izlab topish ***malaka*siga** ega bo’lish kerak.

III.1.Asosiy nazariy qism “Pedagogika nazariyasi” (ma’ruza mashg’ulotlari)

1-Modul. “Pedagogika nazariyasi kurning mazmuni va mohiyati”

O‘zbekiston Respublikasida ta`lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risda”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati mazmuni asosiy tamoyillari. Ta’lim tizimi va turlari.

Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to`g`risidagi fan. Ilmiy pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari

Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari. Pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. "Individ" va "shaxs" tushunchasi. Shaxs rivojlansihining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.

Didaktika-pedagogik ta'lim nazariyasi. O`qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida

Ta'lim nazariyasi (didaktika)-pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari. Ta'lim jarayonining mohiyati. O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzulishi. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari.

Ta'lim mazmuni. Ta`lim metodlari va vositalari

Ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni. Hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini belgilashga doir asosiy g'oyalar. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar. Davlat ta'lim standarti. "Ta'lim metodlari" va "usullari" tushunchalari. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Ta'lim metodlarining mohiyati. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari. Ta'lim vositalari va ularning funksiyalari.

Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakarini tashhis etish

Ta'limni tashkil etish shakllari tushunchasi va ta'lim turlari. Darsning turlari va tuzulishi. Nostandart darslar. Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari. O'qituvchining darsga tayyorlanishi. Ta'lim olganlikni tashhis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari. Ta'lim olganlikni tashhis etish tamoyillari. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari , shakllari va metodlari. Bilim, ko'nikma va malakarni baholash mezonlari.

Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari Jamoa tarbiya ob'yekti va sub'yekti sifatida.

"Tarbiya" tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Tarbiya vositalari. Jamoa tushunchasi. O'quvchilar jamoasini shakllasntirishning mohiyati va tashkiliy saoslari. O'quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari.O'quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.

Tarbiyaning umumiy metodlari. Tarbiya turlari (ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, mehnat, ekologik, estetik, aqliy, jismoniy)

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlari tasnifi. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish. Pedagogik rag'batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.

"Ilmiy dunyoqarash" tushunchasining mohiyati. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalari. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning metod va vositalari. Aqliy tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalari va mazmuni. Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shakllari, metod va vositalari. O'quvchilarning aqliy tarbiyalanganlik darajasini baholash.

"Axloq" tushunchasining mohiyati. Axloq-ijtimoiy ong, ta'sir ko'rsatish, tarbiyalash shakli sifatida. Sharq mutafakkirlarining shaxs ma'naviy sifatlari to'g'risidagi g'oyalari.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakllari va vositalari.

Shaxsni kamol toptirish jarayonida mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasi tizimi va uning mazmuni.

Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni, tashkiliy shakl, metod va vositalari. Shaxsda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish. Ekologik tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni, tashkiliy shakllari, metod va vositalari. Shaxsda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish.

Fuqarolik tarbiyasining mazmuni va vazifalari. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida yoshlarning fuqarolik tarbiyasi. Fuqarolik tarbiyasida davlat ramzlaridan foydalanish. Fuqarolik tarbiyasining umuminsoniy jihatlari: tinchlikni saqlash, ekologik muammolar, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hamkorlik.

Huquqiy tarbiya. Huquqiy tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Yoshlar o‘rtasida xulq buzilishining oldini olishda huquqiy tarbiyaning ahamiyati.

Shaxsni kamol toptirish jarayonida mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida ta’lim muassasalarida mehnat tarbiyasi tizimi va uning mazmuni.

Nafosat tarbiyasining maqsad va vazifalari. Maktab nafosat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari.

Shaxsning har tomonlama kamol topishida jismoniy tarbiyaning o‘rni va vazifalari haqida. Jismoniy tarbiya konsepsiyasi.

Ta’lim muasasasasi menejmenti. Korreksion (maxsus) pedagogika asoslari.

Ta’lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha. Ta’lim muassasasini boshqarish. Ta’lim muassasasi Ustavi-rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat. Ta’lim muasasasining ichki boshqaruvi. Ta’lim muasasasida metodik ishlarni tashkil etish.Korreksion (maxsus) pedagogika pedagogika fanlarining tarmog’i sifatida. Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Inklyuziv ta’lim. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi. Aqliy rivojlanishi, eshitish, ko’rish, nutqida nuqsoni bor bolalar. O’zbekiston Respublikasida anomal bolalarning ijtimoiy holati.

III.2. Asosiy nazariy qism “Pedagogika tarixi” (ma’ruza mashg’ulotlari)

2-Modul “Pedagogika tarixi” kursining nazariy (ma’ruza) mashg’ulotlari mazmuni.

Pedagogika tarixi fan sifatida. Ibtidoiy jamoada tarbiya. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O’rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

“Pedagogika tarixi” fanining maqsadi va vazifalari. “Pedagogika tarixi” fani g’oyalarining kishilik jamiyati taraqqiyoti fani bilan o’zaro aloqadorligi. Ta’lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari. Eng qadimgi yozma manbalarda ta’lim-tarbiya masalalari.

Islom dinining tarqalishi va uning ta’lim-tarbiyaga ta’siri. Musulmon maktablari va unda ta’lim-tarbiya mazmuni. Diniy kitoblarning tarbiyaviy ahamiyati. Qur’oni Karim-axloqiy-falsafiy ta’limotlar manbai. Hadis ilmining paydo bo’lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning Hadis ilmi rivojiga qo’shgan hissasi.

Sharq Uyg’onish davrida pedagogic fikrlarning rivojlanishi. Sharq Uyg’onish davrida ta’limiy-axloqiy fikrlar rivoji.IX-XII asrlar Sharq uyg’onish davri. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi yarmigacha Markaziy Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiyoti.

Sharq uyg’onish davri va unda ta’lim-tarbiya masalalari haqida tushuncha. Sharq uyg‘onish davrida ilm-fan, madaniyat. Al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Al-Farobiy va Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning ilmiy merosi, ularning didaktik qarashlari va pedagogika fani taraqqiyotidagi o‘rni. Mahrmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari-pandnoma asar sifatida.Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida didaktik qarashlar. Kaykovusning “Qobusnoma” asarining tarbiyaviy ahamiyati. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarounnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji. Ijtimoiy hayotning ta’im-tarbiya, maktab va pedagogic fikrlar rivojiga ta’siri. So’fiylik ta’limotining ma’naviy hayotga ta’siri. Movarounnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma’rifat rivojiga qo’shgan hissasi. Mirzo Ulug’bekning pedagogic g’oyalari va

ma’rifatparvarlik xizmatlari. Ulug’bek davrida maktab islohoti. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogic fikrlari.

Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo’shgan hissasi. Navoiyning o’qituvchi(mudarris) to’g’risida fikrlari. Abduraxmon Jomiyning pedagogik qarashlari. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. “Axloqiy Jaloliy” asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o’rni.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o’lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji.XIX asrning ikkinchi yarmi Turkistonda maktablar tizimi.

Chor Rossiyasining ta’lim siyosati. Turkistonda maktablar tizimi. Turkistonda jadidchilik harakati.Yangi usul maktablarining ochilishi.Maxmudxo’ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Abdulqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma’rifatparvarlik xizmatlari.

Mustaqil O’zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”- Respublikamiz ta’lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo’nalishlari.

Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Ya.A. Komenskiyning pedagogik nazariyasi.
XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji.
K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi

Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya. QadimgiYunoniston faylasuflari tarbiya to’g’risida. Qadimgi Rimda pedagogik g’oyalar rivoji. XII asrda Rossiyada pedagogik adabiyotlarning nashr etilishi. Ruspedagog-olimlarining pedagogik g’oyalari. G’arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlang’ich ta’lim metodikasiga qo’shgan hissasi. Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.

XIX asrning oxiri – XX asrda G’arbiy Yevropa, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo’nalishlari. L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to’grisida. K.D.Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi.

Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta`lim tizimi va pedagogika fani rivoji

XX asr jahon ta’lim tizimidagi global tendaensiyalar. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi. Ta’lim modellari. Xalqaro loyihalar va ta’lim dasturlari.

III. 3. Asosiy nazariy qism “Pedagogik mahorat” (ma’ruza mashg’ulotlari)

3-Modul. “Pedagogik mahorat”kursining nazariy (ma’ruza)mashg’ulotlari mazmuni

Pedagogik mahoratning asosiy komponentlari. O`qituvchi faoliyati pedagogik qobiliyat

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati. O‘qituvchi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari. Pedagogik qobiliyat. O‘qituvchi faoliyatida pedagogik va kommunikativ qobiliyat. Pedagogik muloqot. Muloqot-pedagogik hamkorlik vositasi sifatida. Muloqotning mohiyati va tuzilishi. Muloqot vositalari va turlariZamonaviy o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar. Pedagogik mahoratning mohiyati va tuzilishi. Pedagogik faoliyatdagi ijodiyot va innovatsiya.

Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasi

Pedagogik texnika va o‘qituvchi mahoratini takomillashtirish yo‘llari. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. O‘qituvchining o‘z ruhiy holatini boshqara olish texnikasi.. O‘qituvchining tashqi qiyofasi va unga qo‘yiladigan talablar.

Nutqning o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqot jarayonidagi asosiy bog‘lovchi vosita ekanligi. Nutq organlari, nutq apparati. Nutq texnikasi, nafas olish, ovozni yo‘lga qo‘yish, uning tozalanishi, talaffuz, nutq sur’ati. O‘qituvchining nutq mahoratini takomillashtirish yo‘llari.

IV. Seminar(Amaliy) mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

“Pedagogika” o‘quv fanidan seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish uchun professor-o‘qituvchilar tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqladi. Seminar mashg‘ulotlarida talabalar ma’ruza mashg‘ulotlari jarayonida o‘zlashtirgan nazariy bilim va ko‘nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlarida matnlar bilan ishlar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlash, talabalarning qiziqishlariga ko‘ra ayrim mavzular bo‘yicha ilmiy maqolalar va tezislar chop etish, o‘quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loymhalashtirish, o‘quv faoliyatni tashkil qilish, pedagogik nazorat va ta’lim sifatini baholashga oid masalalar echish, ayrim mavzular bo‘yicha ko‘rsatmali vositalar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Seminar mashg‘ulotlari kichik guruhlarda ishlash, mustaqil fikrni bayon etish va guruhlar taqdimoti shaklida o‘tkazilsa yuqori samara beradi.

1. O‘zbekiston Respublikasida ta`lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari.
2. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to`g`risidagi fan. Ilmiy pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari
3. Didaktika-pedagogik ta’lim nazariyasi. O`qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida
4. Ta’lim mazmuni. Ta`lim metodlari va vositalari
5. Ta’limni tashkil etish shakllari va turlari. O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakarini tashhis etish
6. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari Jamoa tarbiya ob’yekti va sub’yekti sifatida.
7. Tarbiyaning umumiy metodlari. Tarbiya turlari (ma’naviy-axloqiy, iqtisodiy, mehnat, ekologik, estetik, aqliy, jismoniy)
8. Ta’lim muasasasasi menejmenti. Korreksion (maxsus) pedagogika asoslari.
9. Pedagogika tarixi fan sifatida. Ibtidoiy jamoada tarbiya. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O’rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.
10. Sharq Uyg’onish davrida pedagogic fikrlarning rivojlanishi. Sharq Uyg’onish davrida ta’limiy-axloqiy fikrlar rivoji.IX-XII asrlar Sharq uyg’onish davri. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi yarmigacha Markaziy Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiyoti.
11. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o’lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji
12. Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Ya.A. Komenskiyning pedagogik nazariyasi. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi
13. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta`lim tizimi va pedagogika fani rivoji
14. Pedagogik mahoratning asosiy komponentlari. O`qituvchi faoliyati pedagogik qobiliyat.
15. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasi

V.“Umumiy pedagogika”, “Pedagogika tarixi”, “Pedagogik mahorat” o’quv kursi mustaqil ta’limni bajarish yuzasidan tavsiya va mustaqil ishlar mavzulari.

Mustaqil ta’lim mazmuni ma’ruza va seminar mashg’ulotlari asosida shakllantiriladi.

Talaba mustaqil ta’limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo'llanmalar boyiha fan boblari va mavzularini o’rganish;

- tarqatma materiallar bo'yieha ma’ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yiha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; masofaviy ta’lim.

Talabaga mustaqil ta’limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo‘yiha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'riladi, test yoki savol-javob o‘tkaziladi.

Tavsiya etiladigan mustaqil ta’limning mavzulari.

1. O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi turlari
2. Demokratik jamiyatda o’qituvchilik kasbi va unga qo’yiladigan talablar.
3. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari.
4. Shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.
5. Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar.
6. Ta’lim metodlari tasnifi.
7. Ta’limni tashkil etishning zamonaviy shakllari.
8. O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini baholashning reyting tizimi.
9. Bolalar jamoasining shakllanish darajalari va bosqichlari.
10. Tarbiyaning umumiy metodlari tasnifi.
11. Tarbiya turlari mazmuni, maqsad va vazifalari, shakl va metodlari.
12. Ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari.
13. Ta’lim muassasasini boshqarishga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar.
14. Eng qadimgi davrda yozuvning paydo bo’lishi.
15. Tarbiya jarayonida tarbiyachi shaxsi
16. Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari
17. Yangi materialni anglash va o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quvchilarning mustaqil ishlash metodlari: darslik bilan ishlash, laboratoriya mashg‘ulotlari
18. Sharq mutafakkirlari ta’lim metodlari haqida
19. Turli yosh guruhlarida ta’lim metodolarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari
20. Ta’lim maqsadi va o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqibo‘quv ishlarining turli shakllaridan foydalanish
21. O‘quvchilarda bilim egallash va o‘qish motivlariga ehtiyojni shakllantirish
22. Ta’lim natijalarini tekshirish va baholashga qo‘yiladigan talablar
23. O‘quvchilarda o‘quv faoliyatini hisobga olish turlari, shakli va metodlari
24. O‘quvchilar bilimini tashxis etish, didaktik tushuncha sifatida
25. Ta’lim natijalarini tekshirish va baholashga qo‘yiladigan talablar
26. Anomal bolalar va ularning tavsifi
27. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy va ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy ahvoli
28. O‘qituvchining pedagogik mahorati
29. Ta’lim tizimi va uni boshqarish asoslari
30. Ta’lim muassasasi rahbarining shaxsiy sifatlari
31. Eng qadimgi davrda yozuvning paydo bo’lishi.
32. “Avesto”dagi pedagogik qarashlar
33. Hadislarning tarbiyaviy ahamiyati
34. Sharq allomalarining pedagogik qarashlari (Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Mirzo Ulug‘bek)
35. Tarbiyaviy asarlarning paydo bo‘lishi va insonni tarbiyalashdagi o‘rni
36. Forobiyning asarlarida ta’lim-tarbiyaviy qarashlari
37. Beruniyning ta’lim-tarbiyaviy qarashlari
38. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining ilmiy, ta’limiy, axloqiy ahamiyati
39. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida barkamol inson tarbiyasida qo‘llaniladigan metod va usullarning ifodalanishi
40. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarining mohiyati
41. Mirzo Ulug‘bek merosining jahon fani taraqqiyotidagi tutgan o‘rni

42. Boburning ma’rifiy-axloqiy qarashlari
43. Alisher Navoiyning ilmiy-ma’rifiy faoliyati
44. XVII-XIX asrning birinchi yarmida Turkistonda ta’lim-tarbiya rivoji
45. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilgari surgan axloqiy qarashlari
46. Munavvar Qorining maorif tizimidagi faoliyati
47. Said Ahmad Siddiqiylarning ta’lim-tarbiya taraqqiyotidagi tutgan o‘rni
48. Abdulla Avloniyning “Trukiy guliston yoxud axloq” asari va uning yaratilishi tavsifi
49. Turkiston xalq dorulfununi va “Dorul muallimi” (1918) tshkil etilishi
50. XX asrning 70-80 yillarida O‘zbekistonda xalq ta’limi tizimi
51. O‘zbek olimlari ilm-fan, maorif va madaniyat sohasidagi qo‘shgan hissalari (H.Abdullayev, YA.G‘ulomov, S.Rajabov, Qori Niyoziy va b.q.)
52. Qadimgi yunon faylasuf olimlari (Suqrot, Platon, Arastu, Demokrit)ning ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari
53. G‘arbiy Yevropada maktab maorifi va pedagogik fikrlar (J.Russo, G.Pestolotsiy, A.Disterverg, YAn Amos Komenskiyning pedagogik faoliyati)
54. Sadriddin Aynining ilmiy merosi tahlili.
55. T.N.Qori – Niyoziyning pedagogik qarashlari.
56. Robert Ouenning ijodiy faoliyati.
57. Adolf Disterver ilmiy faoliyatini o’rganish.
58. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta’lim tizimi. (AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqalar).
59. L.N.Tolstoy asarlaridagi pedagogitk g’oyalar tahlili.
60. I.G. Pestolottsining pedagogik qarashlari tahlili.
61. Jon Lokk va Jan Jak Russolarning ilmiy merosida pedagogik qarashlar tahlili.
62. Mirzakalon Ismoiliyning “Insoniylik qissasi” tahlili.
63. A.S.Makarenkoning pedagogik faoliyati.
64. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik g’oyalari.
65. O`tkir Xoshimov ijodiy merosi.
66. Hadis ilmining paydo bo’lishi Al-Buxoriy, At-Termiziy asarlari.
67. Tasavvuf ilmining paydo bo’lishi.
68. Lomonosovning pedagogika fani rivolidagi hissasi.
69. Mirzakalon Ismoiliyning ilmiy-ijodiy faoliyati.
70. Tursunoy Sodiqovaning ijodiy merosi.
71. Toxir Malikning ijodiy merosi.
72. Oysha Hasanboyevaning pedagogika fani rivojidagi hissasi.
73. Abdulla Oripovning ijodiy merosi
74. Abdurauf Fitratning “Oila” asari.
75. Cho`lponning ijodiy merosi.
76. Abdulla Qodiriy ijodiy merosining tarbiyaviy ahamiyati

Izoh: Mustaqil ishlarni bajarish uchun talabalarga axborot manbai sifatida darsliklar, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, metodik ko‘rsatma va tavsiyanomalar, ma’lumotlar to‘plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, internet tarmog‘ida majud bo‘lgan mavzular taqdim etiladi.

Asosiy va qo’shimcha o’quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi) O‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani sohasi: bakalavriat yo‘nalishi uchun darslik//prof.M.X.Toxtaxadjaevaning umumiy tahriri ostida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati” nashriyoti, 2010.
2. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. “Sanostandart” nashriyoti. Toshkent 2017 y.

3. R.A.Mavlonova, O.To'rayeva, K.M.Xoliqberdiyev, Pedagogika. Darslik T:. O'qituvchi 2018 yil.
4. Pedagogika \\Nopedagog oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.Inayatov, N,Muslimov, D.Ro'ziyeva, M.Usmanbayeva.-Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti, 2013 y
5. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. Darslik. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
6. Yuzlikayeva Y., Madyarova S. Теория и практика общей педагогики. – T.: TDPU, 2014.
7. Калдыбекова Л.С, Жалпы педагогика теориясы жене практикасы. Педагогика теориясы. – Т.: ТДПУ, 2013.
8. K.Hoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma.T:.O'qituvchi 2010-yil
9. K.Hoshimov, Nishonova S. Pedagogika tarixi / Darslik. – Toshkent: "Istiqlol" nashriyoti, 2005.
10. K. Hoshimov, S.Ochil O'zbek pedagogikasi antologiyasi. T.: O'qituvchi 1999 y.
11. K. Hoshimov, S.Ochil O'zbek pedagogikasi antologiyasi. T.: O'qituvchi 2010 y.
12. N.N.Azizxujayeva Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: Fan, 2006y.
13. Omonov X., Xo'jayev N., Madyarova S., Eshchonov E., Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T.:IQTISOD MOLIYA, 2009.
14. A.Xoliqov Pedagogik mahorat.T.: Iqtisod-moliya, 2011.
15. Подласый И.П. Педагогика. Москва. Высшего образования, 2003

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent : O'zbekiston, 2016. — 56 b.
2. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. — Toshkent : O'zbekiston, 2017. — 104 b.
3. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. — Toshkent: „O'zbekiston", 2017. — 48 b.
4. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoev. — Toshkent: : „O'zbekiston", 2017. — 488 b.

5. J.Hasanboyeva., K.Turaqulov X., Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.: Fan va texnologiya.
6. Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg'ulotlari. – T., 2013.
7. Niyozov G'., AxmedovaM. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.
8. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar).-T.: 1999y

Internet saytlari

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz
4. www. edu. Uz
5. tdpu-INTERNET. Ped